# Aholining inflyatsion kutilmalari

Noyabr oyida aholining kelgusi 12 oylik inflyatsion kutilmalari o‘tgan oyga nisbatan **0,2 foiz** bandga pasayib, **11,5 foizga** teng bo‘ldi.

**Noyabr, 2025** | **Jami 3 145 ta respondent qatnashdi**




| **Inflyatsion kutilmalarning omillari** (respondentlar ulushi, foizda) | 2024 | 2025 | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | dek | yan | fev | mar | apr | may | iyun | iyul | avg | sen | okt | noy |
| Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi | 56 | 57 | 63 | 59 | 59 | 57 | 50 | 51 | 48 | 46 | 46 | 49 |
| Yoqilg‘i va energiya narxining qimmatlashishi | 57 | 50 | 52 | 48 | 47 | 49 | 45 | 45 | 41 | 41 | 42 | 40 |
| Asosiy oziq-ovqatlarning qimmatlashishi | 26 | 26 | 28 | 28 | 26 | 25 | 22 | 24 | 26 | 25 | 27 | 26 |
| Transport xarajatlarining oshishi | 35 | 30 | 31 | 28 | 29 | 32 | 30 | 27 | 26 | 25 | 25 | 24 |
| Ish haqi va nafaqalarning oshishi | 28 | 22 | 23 | 20 | 18 | 22 | 35 | 34 | 31 | 27 | 26 | 23 |
| Monopoliya va narxlarning sun’iy oshirilishi | 33 | 25 | 32 | 26 | 26 | 26 | 24 | 24 | 22 | 22 | 23 | 20 |
| Valyuta kursining o‘zgarishi | 55 | 46 | 41 | 39 | 38 | 37 | 27 | 30 | 24 | 22 | 22 | 20 |

Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan asosiy omillar sifatida **kommunal xizmatlarning qimmatlashishini** qayd etgan respondentlar ulushi ortgan bo‘lsa, **yoqilg‘i** va **energiya resurslari qimmatlashishi, ish haqi** va **nafaqalar, shuningdek, narxlarning sun’iy oshirilishi** hamda **valyuta kursi o‘zgarishini** ta’kidlagan aholi respondentlar ulushi kamaydi.

# Tadbirkorlarning inflyatsion kutilmalari

Tadbirkorlik subyektlarining inflyatsion kutilmalari ham o'tgan oyga nisbatan **0,6 foiz** bandga sekinlashib, **10,5 foizni** tashkil etdi.

**Noyabr, 2025** | **Jami 1 637 ta respondent qatnashdi**




| **Inflyatsion kutilmalarning omillari** (respondentlar ulushi, foizda) | 2024 | 2025 | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | dek | yan | fev | mar | apr | may | iyun | iyul | avg | sen | okt | noy |
| Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi | 52 | 54 | 58 | 52 | 55 | 54 | 47 | 47 | 45 | 44 | 47 | 46 |
| Yoqilg'i va energiya resurslari qimmatlashishi | 49 | 49 | 50 | 45 | 46 | 48 | 43 | 42 | 40 | 41 | 45 | 42 |
| Transport xarajatlarining oshishi | 34 | 32 | 34 | 31 | 31 | 37 | 32 | 31 | 31 | 30 | 33 | 30 |
| Xomashyo narxlarining qimmatlashishi | 25 | 25 | 27 | 25 | 27 | 28 | 25 | 25 | 24 | 26 | 28 | 26 |
| Ish haqi va nafaqalarning oshishi | 25 | 26 | 22 | 23 | 23 | 24 | 33 | 34 | 33 | 29 | 25 | 23 |
| Soliq yukining yuqoriligi | 27 | 24 | 27 | 26 | 27 | 27 | 25 | 26 | 24 | 24 | 23 | 21 |
| Valyuta kursining o'zgarishi | 52 | 51 | 43 | 43 | 43 | 40 | 31 | 31 | 25 | 22 | 21 | 19 |

Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar sifatida **yoqilg'i** va **energiya resurslari, transport xarajatlari, xomashyo narxlarining qimmatlashishi, ish haqi va nafaqalar, shuningdek, dollar kursining oshishi** hamda **soliq yukining yuqoriligini** ta'kidlagan tadbirkorlar ulushi kamaydi.

# Inflyatsion kutilmalar – sohalar kesimida

Aholining yuqori inflyatsion kutilmalari **maishiy xizmatlar** sohasi vakillari tomonidan bildirilgan bo'lsa, kelgusida narxlar shakllanishi bo'yicha nisbatan past kutilmalar **umumiy ovqatlanish** sohasida qayd etildi.

**Noyabr, 2025** | **Respondentlar: aholi – 3 145 ta, tadbirkorlar – 1 637 ta**

## Aholi




## Tadbirkorlar




Tadbirkorlarning yuqori inflyatsion kutilmalari **ta'lim** sohasida faoliyat olib boradigan korxonalar tomonidan qayd etilgan bo'lsa, kelgusida narxlar shakllanishi bo'yicha nisbatan past kutilmalar **hunarmandchilik** sohasida kuzatildi.

# Inflyatsion kutilmalar – hududlar kesimida

Aholi inflyatsion kutilmalarining yuqori koʻrsatkichi **Toshkent viloyatida** kuzatilgan boʻlsa, nisbatan past inflyatsion kutilmalar **Xorazm viloyatida** istiqomat qilayotgan aholi tomonidan qayd etildi.

**Noyabr, 2025** | **Respondentlar: aholi – 3 145 ta, tadbirkorlar – 1 637 ta**

## Aholi




## Tadbirkorlar




Tadbirkorlik subyektlarining yuqori inflyatsion kutilmalari **Samarqand viloyatida** kuzatilgan boʻlsa, nisbatan past kutilmalar **Fargʻona viloyatida** faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan qayd etildi.

# Inflyatsion kutilmalar (aholi)

Daromadlari **4 mln so'mdan** yuqori bo'lgan aholining inflyatsion kutilmalari nisbatan yuqori darajada shakllandi.

**Noyabr, 2025** | **Jami 3 145 ta respondent qatnashdi**




## Hududlar kesimida aholining inflyatsion kutilmalar bo'yicha javoblar taqsimoti



# Sezilgan inflyatsiya (aholi)

Noyabr oyi yakunlariga koʻra, aholi tomonidan sezilgan inflyatsiya darajasi oʻtgan oyga nisbatan **0,6 foiz** bandga pasayib, **11,8 foizni** qayd etdi.

**Noyabr, 2025** | **Jami 3 145 ta respondent qatnashdi**







Sezilgan inflyatsiya darajasining yuqori koʻrsatkichi **Andijon viloyatida** qayd etilgan boʻlsa, nisbatan past sezilgan inflyatsiya darajasi **Xorazm viloyatida** kuzatildi.

# Sezilgan inflyatsiya omillari (aholi)

Oktabr-noyabr oylarida aholi tomonidan narxlarida yuqori oʻsish kuzatilgan asosiy turdagi tovar va xizmatlar

**Noyabr, 2025** | **Jami 3 145 ta respondent qatnashdi**



# Sezilgan inflyatsiya (aholi)

Daromadlari **4 mln so'mdan** yuqori bo'lgan aholining sezilgan inflyatsiya darajasi nisbatan yuqori shakllandi.

**Noyabr, 2025** | **Jami 3 145 ta respondent qatnashdi**







Aholi tomonidan yuqori sezilgan inflyatsiya darajasi **maishiy xizmatlar** sohasi vakillari tomonidan bildirilgan bo'lsa, nisbatan past sezilgan inflyatsiya darajasi **umumiy ovqatlanish** sohasida qayd etildi.